

PUDRAT SHARTNOMASI

Keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladigan **Nurota tumani Xalq ta'limi** nomidan «Nizom» asosida ish yurituvchi **B.Bobonazarov** bir tomondan, keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiladigan "**LAZIZ**" MCHJ nomidan "Ustav" asosida ish yurituvchi **Rustam Sura't Ravshanovich** ikkinchi tomondan, Nurota tumani 6-son umumta'lim maktab tizimini joriy ta'mirlash ishlariga mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar

I. TARIFLAR

1. Bajariladigan qurilish ishlari loyihaga asosan olib boriladi, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar va bajarilgan ishni buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dalolatnomasi (Forma-2) asosida ish olib boriladi.

qurilish maydoni - mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan er uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar - Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar - sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish - ishlarning har bir bosqichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. SHARTNOMA MAVZUSI

2. "Pudratchi" mazkur shartnoma shartlariga ko'ra **Nurota tumani 6-son umumta'lim maktab tizimini joriy ta'mirlash ishlari summasi 28 600 000 so'm** bo'yicha qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi. "Buyurtmachi" esa "Pudratchi" ga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovini amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. SHARTNOMA BO'YICHA

ISHLAR QIYMATI

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va erkin tanlov komissiyasining qarori (2022 yil 23.11 lot 192102 -son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **28 600 000 (Yegirma sakkiz million olti yuz ming so'm)** ni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga engib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda; ishlar hajmi va turi qat'iy ravishda o'zgartirilmaydi (qonunda kuzda tutilgan xollar bundan mustasno); ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

SHartnomaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini etkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

SHartnomaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini etkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga - ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan va tegishli ravishda ruyxatga olingan kundan boshlab Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi;

VI. ISHLARNI BAJARISH MUDDATLARI

10. SHartnoma:

milliy valyuta "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab; keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada "so'mda" o'zaro hisob-kitob qilinganda - shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar Smeta xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. TO'LOVLAR VA HISOB-KITOBLAR

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi, bu **8 580 000 (Sakkiz million besh yuz sakson ming so'm)** ni tashkil etadi.

15. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berilgandan so'ng, keyingi tulov "Bajarilgan ishlar" dalolatnomasiga (forma-2) asosan amalga oshiriladi.

16. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqni o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTL

18. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qulaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyadagi qarshi tegishli shartlar va talablarni tushinishi haqida bir-birini ishonitiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

19. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normative hujjatlarning Korrupsiyadagi qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

IX. SHARTNOMA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

18. Mazkur shartnomani bajarmaganlik va (yoki) lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf boshqa tarafga yetkazilgan zararni to'laydi, xamda O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvshi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'grisida"gi Qonunining 25-32 moddalariga, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 45 va 48- moddalariga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlik, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'grisidagi kodeksining 175, 175-1, 212- moddalarida nazarda tutilgan javobgarlik choralarini qo'llaniladi.

IX. ISHLARNI BAJARISH

19. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga asosan ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

20. Pudratchi ob'ektida ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

21. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

22. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'grisidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va etishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'grisidagi hujjatlarni beradi.

23. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalari va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

24. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvalarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallanganidan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

25. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

26. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifati tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlariga ega bo'lishini kafolatlaydi.

27. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va "Davarxitektqurilishnazorat" inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

28. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifati ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida etkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

31. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida

ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida etkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

X. ENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

32. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiiy hodisalari va boshqa engib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati engib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

33. Agar engib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

34. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. KAFOLATLAR

35. Pudratchi: barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish majburiyatini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini;

ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalari muvofiqligini kafolatlaydi.

Mavjud nusonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

36. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha xo'jalik sudiga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XII. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

37. Buyurtmachi: shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

38. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

39. SHartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan ecurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

40. Mazkur shartnomani bekor eilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

41. SHartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga etkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

42. SHartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

43. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga etkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

44. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.01 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

45. SHartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0.03 foizi miqdorida jarima to'laydi.

46. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachi muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.05 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilga nuqsonlar va kachiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachi muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0.05 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli etkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

47. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi "Davarxitekteurilishnazorat" inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 0.05 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

48. SHartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalangan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

49. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XIV. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

50. SHartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek etkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xo'jalik sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

XV. ALOHIDA SHARTLAR

51. Mazkur shartnoma imzolagandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

52. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

53. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular amaldagi konunlarga

asoslangan ravishda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

54. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni asoslangan xolda rasmiylashtirilishi va amaldagi konunlarga asoslanib tasdiqlashi kerak.

55. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

56. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

57. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

58. SHartnoma taraflar tomonidan imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi va amal qilish muddati "31" dekabr 2022 yilgacha hisoblanadi.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI:

«Pudratchi»

"LAZIZ" MCHJ

(ijrochining nomi)

Manzili: Nurota tumani

E.Sudir ko'chasi 28 uy

tel/faks 93-350-00-72

x'v 2020 8000 7054 3219 2001

bank nomi Navoy viloyat Mikroreditbank

MFO 00211 INN 308 812 502

OKONX 71150

«Buyurtmachi»

Nurota tuman XTB

(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

manzili Nurota tumani

M.Raximov kuchasi

tel/faks 97-523-18-02

sh'xv 100228601223870921000750074

bank nomi Markaziy bank Toshkent

MFO 00014 INN 200 030 979

OKONX


G'aznachilik bo'lim nomi: Nurota
Tuman G'aznachilik bo'linmasi

Raxbar

RUSTAMOV SUR'AT RAVSHANOVICH

(F.I.SH.)

(imzo)



Raxbar


B. Bobonazarov

(F.I.SH.)

(imzo)

M.O.



	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	BAYRAMALI BOBONAZAROV BAHRONOVICH
	Imzolangan sana	29.11.2022 10:29
	Hujjat kodi	BF2420024605
	Hulosa kodi	KU1302243254

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

KU1302243254

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **6-maktabni joriy ta'mirlash**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: NUROTA TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMI tomonidan 25.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Nurota tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



M.B.NASIROVA

29.11.2022